

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARIGA TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA MANZARA JANIRIDA IJOD QILISHNI O'RGATISH

Akbarova Rayhona Jamoliddin qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 1- bosqich talabasi
rayhonajamolidnova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchi bolalarni tasviriy san'atning manzara janriga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish va o'quvchilarni manzara janridagi tushunchalarni kengaytirish dunyoqarashlarini rivojlantirish haqida ma'lumotlar yoritilgan. O'quvchi bolalarga manzara janrda rasm ishlash mashg'ulotlari davomida nazariy bilimlarni kengaytirish hamda amaliy masalalar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Manzara, ta'sviriy san'at, perispektiva, janr, kompozitsiya tasvir, janr davr, tur, rassom.

Abstract: This article provides information on the development of the worldviews of students in general secondary schools to further increase their interest in the landscape genre of visual arts and to expand the understanding of the landscape genre. Students were given information about expanding theoretical knowledge and practical issues during the landscape painting classes.

Key words: Landscape, fine art, perspective, genre, composition image, genre period, type, artist

Аннотация: В данной статье представлена информация о развитии мировоззрения учащихся общеобразовательных школ с целью дальнейшего повышения их интереса к пейзажному жанру изобразительного искусства и расширения представлений о пейзажном жанре. Студентам была предоставлена информация о расширении теоретических знаний и практических вопросах на занятиях по пейзажной живописи.

Ключевые слова: Пейзаж, изобразительное искусство, перспектива, жанр, композиционный образ, жанровый период, тип, художник.

KIRISH: Mamalakatimizdan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohada hayotga tadbiiq etilayotgan istiqbolli loyihalar, barcha joylarda amalga oshirayotgan keng ko'lamlil buniyodkorlik ishlari xalqimizning nafaqat turmush tarzini balki dunyoqarishini ham tubdan o'zgartirmoqda. Bunday ezgu jarayonni madaniyat va san'at rivojiga ijod ahliga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor misolida ham ko'rishimiz mumkin. "Mamlakatimiz tabiri bilan aytganda yurtimizda ma'daniyat va san'atga katta e'tibor berilmasa jamiyat rivojlanmaydi, degan so'zlarning zamirida keng ma'no mujassamdir. Shunday ekan san'at hususan taviriy san'atni o'rganar ekanmiz biz avvalo tasviriy san'atning maqsad vazifalari hamda tasviriy san'at va uning mohiyati yut va janrlari haqida bilishimoz kerak. Ushbu maqoladahan bu haqida ham fikr yuritimiz. Tasviriy san'at-bu eng qadimiy va keng tarqalagan san'at turlaridan hisoblanadi. Aslida san'at turlari juda ko'pdir. Bular musiqa, tasviriy san'at, badiiy adabiyot, xoreografiya, teatr, memorchilik va shu kabi san'at turlari mavjuddir. Tasviriy san'at tushunchasi keng ma'noga egadir. XIX-asrgacha me'morchilik, haykaltaroshlik va rang tasvir tasviriy san'atning turlari bo'lib hisoblanadi. So'ngi 20 yil ichida san'at uning dizayini kabi turi ham o'z o'rinini topgan. Aslida tasviriy san'atning hamma turlari bir-biriga juda yaqin hisoblanadi va ularni o'hshashliklari ham bor. Lekin har birini o'ziga xos tasvirlash uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari ularning texnikasi mavjud. Bundan tashqari ularning har biri ishlatilish o'rnini, tasvirlaydigan mavzusi ishlanish uslubiga qarab bir qator turlarga va janrlarga bo'linadi. Natyurmort, portret, maishiy janr va manzara shu kabilar tasviriy san'atning janrlari hisoblanadi.

MATERIALLAR VA USULLAR:Manzara janri haqida so'z borar ekan barchamizning ko'z o'ngimizga tog'-u toshlar o'rmonlar,daryo,dengizlar va ona tabiatimizning go'zal joylari keladi.Rassomlar ham shu ona tabiatimizning turlari ko'runishlarini mahorat bilan aks ettirganlar.Yevropada manzara XIV-XVII asrlarda taraqqiy etdi.G'Abdurahmonov "Oydin kecha" XIX-arning ikkinchi yarmidagi rud realistik san'atida manzara janri beqiyis o'sadi.Manzaraning mohir ustalari Klod Loren, L.Shishkin, Leviten, O'.Tansiqboyev, M.Karaxon, G'.Abdurahmonov va birqancha mashxur rassomlar ijodini bu borada misol keltirishimiz mumkin.Manzara janirining ikkinchi bir ko'rinishi bu Marina janridir Unda asosan dengiz hodisalari tasvirlanadi.Marina janrini shakillanishida I.Ayvazovskiyning xizmatlari katta bo'lgan.U o'zining umrini faqat dengiz ko'rinishlarini tasvirlashga bag'ishlaydi.Uning "To'qqizinchi Val","Chesmen Jangi",Qora dengiz",To'lqinlar orasida" kabi asarlari jahon tasviriy san'atida munosib o'rnini egallaydi.

Manzara janrida asosan tabiat,shahar va interyer ko'rinishlarini ham tasvirlash mumkin.Munozara janrdagi bazigi asarlar tabiatni haqiqiy uslubini tasvirlasa ayrimlari esa xayolan yani kompazitsiya uslubida ishlangan bo'ladi.Bazan bu ikki hol bir asarda bo'lishi ham mumkin.Manzara janrini paydo bo'lishi juda uzoqlarga borib taqaladiManzara tasvirlarining keng tarqalishini Qadimiy Sharq va Krit orollari misolida ko'rish mumkin.Masalan eramizdan avvalgi asr Beni Xasandagi qabr tasvirida yovvoyi mushuk ovi tasvirlangan.Bu janr esa mustaqil ravishda

METADALOGIYA:Xitoyda VI asrda paydo bo'lgan.Yevropa san'atida esa uyg'onish davri ilmiy asosda ya'ni chizqli va havo perspektivasi asosida shakillangan.Manzara janrini ikki hili mavjud.Birinchisi mustqil turi bo'lib,unda faqat manzara aks ettiriladi.Ikkinchi turida manzara biron turi tasvirlanadi.Masalan portretni orqa tabiat yoki Shahar manzarsi tasvirlanishi mumkin.Misol uchun Leonardo Da Vinching mashxur Monaliza asari. Manzaraning ko'rinishlaridan biri bu interyer hisoblanadi.U binolarning ichki qism ko'rinishlarini ifodalaydi.Bu janr qadimgi Misr va Xitoy rassomchiligida uchraydi.Ular o'z ishlarida aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perspektiva qonunlari asosida interyerini tasvirley olgan.Manzara janri ko'proq rang tasvirda qisman grafika va haykaltaroshlikda qo'llaniladi.Xaykaltaroshlikda manzara asosan uning releyf turida ishlatiladi.Xaykaltaroshlikda manzara ko'rinishlari asosiy emas to'ldiruvchi qo'shimcha ahamiyat kasb etadi. Rassomlar tarixiy va maishiy janrdagi asarlarida bevosita manzaraga ham murojnat qilamiz.Etyud eskizlar tuzadilar.Bu holda manzara kartinada qo'shimcha fan vazifasini o'taydi. 70-80 yillarda G' Abdurahmonov, F.Tohirov, R.Choriyev, K.Boguduxov, M.Yesin, Pudovkin kabi rassomlar manzara janrida samarali ijod qildilar.Hozirgi vaqtda ko'plab iqtirdorli rassomlar,A.Nuritdinov,O.Qozaqov,Z.Islomshikov,A.Mo'minov,A.Mirsoatov kabilar mustaqil O'zbekistonning go'zal tabiatini madh etuvchi maftunkor manzaralarini yaratib kelmoqdalar.Manzaraning bir necha turlari mavjud shahar(arxitektura),qishloq (tog') manzara sanoat(zavod,fabrika,inshoat,

qurilish)tarixiy ramantik,lirik,ponodrama (ko'rinishida) manzaralari shular jumlasidandir.Bularni har bir negizida ifodalovchi mazmun,g'oya yotadi.Shahar manzarasida Shahar hayoti bilan bog'liq,arxitektura,transport vositalari,odamlar,oromgoh bog'lar hamdayer osti o'tish joylari kompazitsiya tasviri uchun misol bo'la oladi Qishloq manzarasi,bepayon kenglik,tog' manzarasi,yaylovlar,qoya tosh,o'simliklar vodiydagi jilvakor suvlar tasviriy kompazitsiya negizini tashkil etadi.Sanoat manzarasi katta Zavod hovlisi,suv ombori,ko'prik,metro qurilishi,texnika qurilish vositasi bilan bog'langan.

Lirik manzarada tabiatni "Erta tong","Bahor" kabu mavzudagi tabiatni nozik, sokin go'zalligini,uning uyg'onish holatini aks ettiruvchi,insongs olam-olam quvonch baxsh etuvchi asarni ko'z oldimizga keltiramiz. Manzaraning kompazitsiyasi vositalari (belgilari) joyni tanlash,ko'rish nuqtasi, ko'rish chizig'i,fazoviy masofa, format, perispektiva, ritm, kolorit, yorug', refleks, kompozitsiya markazi shular jumlasidandir.Bu janrda kompazitsiya yaratish uchun qalamtasvir,rangtasvir sohalarida mukammal bilimga ega bo'lish kerak.Naturadan dastlabki chizilgan chizig'i, rangli etyudlar manzara

kompozitsiyasini tasvirlamoqchi bo'lsak avval tabiatda quyoshli, bulutli kunlar, peshin, oqshom holatini harakterli joylarini sinchiklab kuzatish kerak. Formatini aniqlab, ufq chizig'i, ko'rish nuqtasini belgilab olish kerak. So'ngra havo va rangni tekislikda nisbatlarini belgilab, oldingi, keying orqa plammi va predmetlar masshtabini toppish darkor. Kompozitsiyani bir nechta variantlarini sonigina ko'mirda bajarish tavsiya etiladi.

NATIJALAR: Mukammal bajarilgan homaki eskiz variantini rang kolopritini aniqlash lozim sifatli bajarilgan eskiz asosida kuz manzarasi kompozitsiyani yakuniy nushasini amalda bajarish kerak. Uni bajarish shartlari qog'oz, karton, xolst, akvarel, guash, moybo'yoq orqali amalga oshiriladi. Rassomlar tarixiy va msaishiy mavzudagi asarlarda bevosita manzaraga ham murojlat qiladilar etyud, eskizlar yozadilar. Bu holda manzara kartina qo'shimcha fan vazifasini o'taydi. V. Vesnetsavning "Alyonushka" asari bunga misol bo'la oladi. Tabiat go'zalligini, zamonasiga xos yangilik o'zgarishlarini K. Yuon, G. Nisskiy kabi rassomlar ham o'z asarlarida tasvirlab namoish etadilar. 50-70 yillarda O'zbekistonda manzara janirida ijod etgan rassomlar U. Tansiqboyev "Issiq ko'l", "Ona o'lka", "Qayraqum suv ombori", N. Qoraxon, O' Tansiqboyev "Nanay yo'li" N. Karaxon "Oltin kuz" Qadimiy Xitoy sanoatida rassomlar tabiatni aks ettiruvchi asarlar yartganlar. Yevropada manzara tarixini XIV-XVII asrlarda taraqqiy etadi. Gollandiya manzarachi rassomlari tabiatni o'hshatib haqqoniy tasvirlashda katta muvafaqiyatlarga erishdilar. Rossiyada manzara janirining rivojlanishi XVIII asrga to'g'ri keladi. Maskva, Peterburg arxitektura yodgorliklari F. E. Alekseyev tamonidan mahorat bilan tasvirlangan. Manzara san'ati tashqi dunyoning go'zalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta'sir etuvchi kuchga ega. Shuning uchun rassom tabiat olamini eng nozik, tirik holatlarni rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo'lgan estetik munosabatni bildirafi. Manzara asarida inson shaxsi, aql zakovatini, ichki tuyg'ularini ta'sir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. Misol tariqasida H. Levitaning "Vladimrka", "Abadiy sokinlik uzra", I. Shishkinning, "O'rmon yiroqliklari". Tasviriy san'atdagi manzara janiriga oid asoslari insonda tabiatga va go'zallik fazilatlarini shakillantiradi.

Xar qanday ijodkor o'tmishdagi rang tasvir sanati ustunlarini merosini va tajribalarini o'rganish vilan birga, tomoshabingina chuqur ta'sir etuvchi tasvir, kompozitsiya qonun uslubiyatini ham o'rganadi.

Manzara janrdagi asarlar inson uchun ma'naviy ozuqa beradi, uni ruhlantiradi. Insonga shodkik va quvonch bag'ishlaydi. Bo'lajak rassom uchun hayotnu kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchizigi va etyudlarni bajarish mashqlarni qilishga kirishsa maqsadga muvofiq ish bo'ladi. Shunday ekan tasviriy san'atning manzara janrida asar yaratishga yuksak bilim, yuksak darajada ko'nikma, malaka hamda qobilyat, salohiyatini talab etadi. Shu boisdan bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan vaqitdanoq qamrovli faoliyatga o'zlarini tayyorlab borishlari zarur.

XULOSA: Xulosa o'rnida aytilishimiz mumkinki manzara janirida barakali ijod etish uchun tinmay barakali ijod etish uchun tinmay o'qish o'rganish, izlanish va o'z ustida ko'proq ishlash zarur shundagina rassomning ijodiy faolligi rivojlanadi va o'z tasvirlash usuli paydo bo'ladi. Buning uchun o'quvchi bolalarga tajribali o'qituvchi tamonidan qulay, oson uslubda, mahorat bilan ko'nikmalar berilishi zarur. Shundagina o'quvchi bolalarda manzara janiriga bo'lgan qiziqish ortadi va tasviriy rivojlanish yuzaga keladi. Ijodkorlikka qobilyati ortib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdirasilov S Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. Toshkent. Ilm ziyo nashriyoti
2. Abdirasilov S, Tolipov N, Oripova N Rangtasvir Toshkent O'zbekiston 2006
3. Abdullayev N.U. "San'at tarixi"-2/1 Toshkent, "San'at tarixi", 2001
4. N. Rostoven. O'rta maktablarda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi M-1980